



Munajat hamd g`azallar badiiyati.

Karimova Nilufar

SHDPI o'qituvchisi

“Munajat” so‘ziga Navoiy asarlari luga‘tida yalinish, yolvorish deb ta’rif berilgan.

Demak, munajat yalinib-yolvorish ma’nosini ifodalaydi. Munajat g‘azallarda lirik qahramon Ollohga iltijolar qiladi, undan bilib-bilmay qilgan gunohlarini kechishni so‘raydi¹.

Qiyomatda gunohin avf etarga,

Rasulingni shafi’ et, kirdgor.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 5-g‘azal)

“Kirdgor” degan forsiy so‘z “yaratuvchi” ma’nosini beradi. Bu baytda to‘g‘ridan to‘g‘ri Ollohga munajat qilinayapti. Rasululloh shafobatidan umidvorlik ruhi bo‘lsa-da, bunga yetkazish ham bevosita Tangridan iltijo qilinayapti.

Munajat g‘azallarda murojaat etiladigan va ta’riflanadigan asosiy qahramon-bevosita Xudoning o‘zi. Lirik qahramon esa ojiz bir banda sifatida Yaratganga o‘z qalb tuyg‘ularini izhor etadi.

Alisher Navoiy asarlarining munajat qismlari shoirning e’tiqodi, Olam yaralishi hikmati haqidagi qarashlarining o‘zagini tashkil etib, mazmunini bilib olishga asos hisoblanadi.

Navoiy asarlarining kirish qismini hamd bilan ya’ni Ollohning sifatlarini bayon etish va Unga hamd aytish bilan boshlaydi. Keyingi boblarida esa o‘zining gunohkorligini e’tirof etib, Ollohdan afv-u marhamat tilab, munajat qiladi. Shoir munajat g‘azallarida Ollohga murojaat qilib, unga abadiy va azaliy ekanini ta’kidlaydi, uning Xoliq ekanini barcha yaratig‘larni ayni – asosi Uning o‘zi ekanini aytadi.

Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko‘nglumga sol,

Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo²

¹ G‘afforova Z. “Navoiyning hamd va na’t g‘azallari”. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2001-yil 7-bet.

² Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 5-tom. Badoye’ ul-vasat. -Toshkent: Fan, 1990, 10-bet



Mazkur bayt magʻzida “Yusuf” surasi 101-oyati karimasining mazmuni yashirindir. Oʻsha oyatda xabar beriladi: “(Yo Rabbi) Meni musulmon holimda jonimni olgin va meni ham solih bandalarning qatoriga qoʻshgin”³.

“Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi devonlarning 1-4 gʻazallari hamd, 5-gʻazallari esa munojot ruhida yozilgan hamdlardir. Munojot mazmunidagi hamd gʻazallarda lirik qahramon Ollohga iltijo qilib, Undan bilib-bilmay qilgan gunohlaridan kechishni soʻrash, oʻz qalb tuygʻularini, cheksiz muhabbatini izhor qilish orqali oʻz Yaratuvchisini taʼrif va tavsif qiladi. Bunday ruhdagi gʻazallarning matlai zotiy ismga murojaat qilish (“Iloho” “Yo Rab”) bilan boshlanadi. Toʻliq hamd mavqeidagi gʻazallarning maqtasi ham munojot ruhidagi bayt bilan yakunlanadi va bunda ham shoir zotiy ismlarni qoʻllaydi. Shoir oʻz Yaratuvchisiga cheksiz muhabbatini, junun holatidagi oshiqligini, samimiy tuygʻulariyu insoniy dardu iztiroblarini izhor qilish ruhida yozilgan gʻazallarida yoki baytlarida Haqqa “Iloho” deb murojaat qiladi⁴.

“Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi hamd gʻazallarning faqat ikkitasi (“Navodir ush-shabob” va “Badoye’ ul-vasat” ning beshinchi gʻazali) ning matlai «Yo, Rab»-zotiy ismga iltijo bilan boshlanadi. Ibrohim Al-Bursaviyning «Ahli sunnat val-jamoat aqoidi» kitobida “Yo Rab! Yo Rab! Yo Rab!” degan kishiga Haq taolo darhol: “Labbayka, bandam!” deydi va tilagan narsalarini yo darhol, yo kechroq ato etadi va yoki oxiratga qoldiradi yoxud undan bir yomonlikni daf etadi”,-deb yoziladi⁵.

Qur’oni Karimda Xudoning «Rabbil olamin», ya’ni olamlarni tarbiya qiluvchi sifatida borligi aytilgan. «Devoni Foniyy» da ham Uning duolarni mustajob qiluvchi bu xislati (Yo, Rab) xususida shunday gʻazal mavjud:

Zi hajr yo Rabu afgʻonam az falak biguzasht,

Tuam xalos namoi az in figʻon,

Yo Rab. Rasid «yo Rab»i man shomi gʻam ba majmai dayr,

Chi boshad ar buti man bishnavada az on, yo Rab⁶.

Shuning uchun shoir oʻz Yaratuvchisiga shaxsiy tuygʻularini izhor qilish bilan birga olam ahli manfaati bilan bogʻliq-har bir musulmon bandaga rahmu shafqat, mustahkam iymon, “nokasu nojins avlodiga” insof soʻrash ruhidagi tuygʻulari bayonida Haqning «Yo, Rab» zotiy ismiga murojaat qiladi. Chunki Uning bu sifati yuqorida taʼkidlaganimizdek, «olamlarni tarbiyalovchi» degan maʼnoni anglatadi⁷.

³ Bekova N. “Alisher Navoiy sheʼriyatida hamd poetikasi”. Toshkent: OʻzResFA, “Fan” nashriyoti, 2006-yil, 69-bet

⁴ Bekova N. “Alisher Navoiy sheʼriyatida hamd poetikasi”. Toshkent: OʻzResFA, “Fan” nashriyoti, 2006-yil, 82-bet.

⁵ Muhammad Zohid qOʻtqu ibn Ibrohi Al-Bursaviy. Ahli sunnat val-jamoat aqoidi. Ikkinchi kitob. - Toshkent: Movarounnahr, 1999, 170-bet.

⁶ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar toʻplami. 20 tomlik. 18-tom. Devoni Foniyy. -Toshkent: Fan, 2002, 93-bet

⁷ Bekova N. “Alisher Navoiy sheʼriyatida hamd poetikasi”. Toshkent: OʻzResFA, “Fan” nashriyoti, 2006-yil, 83-bet



Yo Rab, o'lg'on chog'da jonim jismu vayrondin judo,

Ul bo'lub mundin, sen bo'lmag'in andin judo.

Elga maxlas istasang, yetti tamug'ni ayla kul,

Aylabon bir shu'la bu ohi duraxshondin judo.

Jannat istab aylaganlarni ibodat qilmag'il

Kavsaru tebiyu qasru huru rizvondin judo⁸.

“Badoye’ ul-vasat” ning 5-g‘azalidan keltirilgan mazkur baytlar orqali ham “Yo, Rab” deya Tangriga murojaat qiladi. Ollohga murojaat qilib, o'lgan chog'da jismimni vayron qilmagin, men ham, sen ham bu jismu jondan judo bo'lmaylik deya nola qiladi. Agar elga najot istasang yetti do'zaxni kulga aylantirib, jannat istab ibodat qilganlarni kavsar suvi va hurlarning porloq shu'lasidan judo aylamagil deya xitob qilmoqda.

Shoir har bir yozgan munojot hamd g'azallarida dunyodagi barcha mavjudotlar o'z yaratganiga doim sajda qilishi zarurligini, Xudoning qahri kelsa, “ko'k bir etak kul” kabi sovurilib ketishi hech gap emasligini ta'kidlaydi.

Yo, Rab eshigingda ul gadomen,

Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen⁹.

“Xamsa” dostonining “Layli va Majnun” bo'limidan olingan bu munojotda shoir Tangriga iltijo qilib, yo, Rab men sening eshigingda gadoman, ammo boshdan oyog'imgacha xatoman, ya'ni gunohkorman deya o'z gunohlarini bo'yniga olib, Tangri oldida javobgarlik hissini tuyadi. Shu dostonida yana bir munojotning go'zal bir baytini keltirib Ollohga yolboradi:

Boq dardu malomating'a yo, Rab,

Rahm ayla bu holating'a yo, Rab.

Shukrungg'a tilimni qoyil ayla,

Sajdangg'a boshimni moyil ayla¹⁰.

Bu munojotida muallif Allohdan dardiga quloq solishini, holatiga rahm qilishini, tilini doimo shukurda, boshini esa sajdada bo'lishini so'raydi. Umuman olganda hamd va

⁸ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 3-tom. Badoye'ul-vasat. -Toshkent: Fan, 1990, 10-bet

⁹ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 9-tom. “Xamsa”, “Layli va Majnun”. -Toshkent: Fan, 1992, 11-bet

¹⁰ Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 9-tom. “Xamsa”, “Layli va Majnun”. -Toshkent: Fan, 1992, 13-bet



munojotni Alisher Navoiy Qur'oni Karimdan o'rgandi. Alloh Taolo o'zining kalomida bandalariga O'ziga hamd va munojot aytishni "Fotiha" surasida o'rgatib qo'ydi:

"Alhamdulillahillobbi 'alamiyn. Ar-rohmanir rohiym. Maliki yavmiddiyn. Iyyaka na'budu va iyyaka nasta'iy. Ihdinas sirotol mustaqiym. Sirotollaziyna an'amta 'alayhim g'oyril mag'zubi 'alayhim valazzolliyn".

Mazmuni: Hamd Olamlar rabbi Allohgakim, (U) mehribon, rahmli va hisob-kitob kuni (Qiyomat) ning egasidir. Sengagina ibodat qilamiz va Sendangina yordam so'raymiz! Bizni shunday to'g'ri yo'lga boshlaginki, (u) Sen in'om (hidoyat) etganlarning (payg'ambarlar, siddiq va shahidlarning) yo'lidir, g'azabga uchragan (Muso qavmidan itoatsizlarining) va adashgan (Iso qavmidan "Allohning farzandi bor" deydigan)larning (yo'li) emas!¹¹

Bu suraning mazmunida hamd va munojot borligining o'zi Alloh o'z bandalariga faqat o'zigagina ibodat qilishi, o'zidagina najot tilashini uqtirdi. Navoiy shu Qur'oni Karim suralari asosida o'zining hamd va munojot g'azallarini yaratdi. Allohning rasuliga na'tlar ham bitdi.

Alloh Qur'oni Karimning "Zumar" surasida shunday deydi: "(Ey, Muhammad), Mening o'z jonlariga jinoyat qilgan (turli gunoh – ma'siyatlar qilish bilan) bandalarimga ayting: "Ollohning rahmat-marhamatidan noumid bo'lmangiz! Albatta Olloh (O'zi xohlagan bandalarining) barcha gunohlarini mag'firat qilur. Albatta Uning O'zigina mag'firatli va mehribondir"¹².

Navoiy Qur'oni Karimdagi Ollohning va'dalarini chuqur anglagan holda o'zining munojot g'azallarida Ollohdan rahm-shafqat qilishini, gunohlarini kechirishini so'rab yolvoradi.

Munojot g'azallarida Navoiy o'zini behad gunohkor, yaratganni pok va akram, o'zini cheksiz isyonkor va Xoliqni rahmli va mehribon deb ataydi.

"Hayratu-labror"ning munojotida insonga mana bunday ta'rif beradi:

"Karramno" keldi manoqib ango,

"Ahsani taqvim"munosib ango ¹³.

¹¹ Qur'oni karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). -Toshkent: Cho'lpon, 1992. 5-bet..

¹² Qur'oni karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). -Toshkent: Cho'lpon, 1992. 343-bet.

¹³ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. /To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. Oltinchi jild. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.



Baytdagi “Karramno” so‘zi “Isro” surasining “Batahqiq Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik”¹⁴ mazmunidagi 70-oyatidan iqtibos. “Ahsani taqvim” jumlasini “Tiyn” surasining “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik” [13.597] mazmunidagi 4-oyatidan olingan. Buyuk shoir Alloh taolo insonni mukarram qilgani va yaxshi suratda yaratgani bilan bog‘liq Qur’oni Karimdagi ikki ilohiy xabarni bir baytga jamlash orqali Odam farzandlarining maqomi yuksak ekani, shunga munosib hayot kechirmog‘i zarurligi masalasiga urg‘u bergan¹⁵

¹⁴ Qur’oni karim va ўzbek tili­da­gi ma’no­lar tar­ji­ma­si (Tar­ji­mon: Shayx Mu­ham­mad So­dik Mu­ham­mad Yu­su­f). – To­sh­kent: Xi­lo­l-Nashr, 2020-yil, 289-bet.

¹⁵ Jabborov N. “Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma’rifiy asoslari”. “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari” № 68 (Xalqaro konferensiya materiallari). Toshkent: 2023-yil, 23-bet.